

Anjuman o'z ishini yakunladi

“O'zbekistondagi Suffa yassi tog'ida joylashgan radioobservatoriyaning bugungi holati va istiqbollari” nomli xalqaro anjumanning ikkinchi kunida ishtirokchilar Suffa tekisligiga borib, qurilish joyini, “Suffa” XRAOning va RT-70 teleskopining hozirgi holati bilan yaqindan tanishdilar.



Anjumanning so'ngi, uchinchi kuni radioastronomiya sohasidagi xalqaro ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yishga, astrofizik obyektlarning RT-70 teleskopida tadqiqot qilinishi imkoniyatlarini o'rganishga, Suffa tekisligi ob-havo sharoitlari va astroiqlimi tahliliga, RT-70 teleskopiga o'rnatiladigan ilmiy asboblari va yuqori sezgirlikka ega radioto'lqin qabul qilgichlariga bag'ishlandi.



Xalqaro anjuman ishining natijalariga ko'ra "Suffa" Xalqaro radioastronomik observatoriya qurilishini oxiriga yetkazishga birlashtirilgan mutaxassislar va tashkilotlar uchun tavsiyanomalar ishlab chiqildi hamda obyektning qurib bitkazish bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihasi tayyorlandi.